

2018-2019 yillar I -chorak yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyati bo'yich ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy ma'lumot.


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018 yil I-chorak amalda	2019 yil I-chorak amalda	2018 yilning I-choragiga nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	449,6	598,4	133,1
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	74,7	202,3	270,4
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	8,3	55,8	672,2
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash ("Viloyat mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUKlar buyurtmasi bilan)	mlrd.so'm	19,8	23,4	118,5
		km	210	226	107,6
4	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	346,8	317,2	91,4
		km	480	368	76,6
5	Sanoat ishlab	mlrd.so'm	43,6	64,8	148

	chiqarish xajmi				
6	Yangi ish joylarini yaratish	kishi	124	42	33,9
7	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	3975	3980	100,1

Qo'mitatimizdagi korxonalar va tashkilotlarda 2019 yil I-choragida Investitsiya dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **202,0 mlrd.so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2018 yilning 2019 yilga nisbatan **270,4 foizni** tashkil etadi.

Bundantashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **55,8 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **672,2 foizni** tashkil qiladi.


2018-2019 yillarning I-chorak yakunlariga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining taqoslama diagrammasi



2019 yil I-chorak yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **226,0 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **9,4 km**, Andijonda **71,0 km**, Buxoroda **9,8 km**, Jizzaxda **9,6 km**, Qashqadaryoda **3,7**

km, Navoiyda **20,3 km**, Namanganda **9,7 km**, Samarqandda **35,4 km**, Surxandaryoda **12,0 km**, Sirdaryoda **5,4 km** Toshkent viloyatida **4,7 km**, Farg'onada **17,8 km**, Xorazmda **11,5 km** hamda Toshkent shahrida **5,8 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olibborildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi o'tgan yilgi nisbatan **107,6 foizni** tashkil etadi.

2019 yil I-chorak yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (xududlar kesimidagi diagramma)



2019 yil I-chorak davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **317,2 kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2018 yiliga qaraganda **91,4 foizni** tashkil etadi.

Qo'mita tizimidagi korxonlar tomonidan 2019 yilda **64,8 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2018 yilga nisbatan **148 %ni** tashkil etganligini ko'rsatadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2018 yilda **42 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu

ko'rsatkich esa 2018 yilining mos ravishdagitegishli davriga qaraganda **33,9 foiz**ni tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2019 yilning I-choragida **3980 tonnani** tashkil etadi. Bu qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2019 yil I-choragida – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **598,4 mlrd. so'mlik**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **133,1 %** ni tashkil etganligini ko'rsatadi.